



**Ilmiy amaliy
jurnal
№ 2 (4)
2026**

**YANGI
O'ZBEKISTON
IQTISODIYOTI**

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali 2-son 2026 yil*

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI
O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI

2

ISBN 978-9943-5256-3-4

Toshkent – 2026

MUNDARIJA

Аслонов С.М., Амиджанова М.М. Развитие бизнес-идей (стартапов) предпринимательской деятельности в Республике Таджикистан.....	7
Умаров И.Ю. Современные тенденции инновационного развития пищевой промышленности Узбекистана.....	13
Akbaraliyeva D., Mirzamahmudova M. Bank tizimi tarixi va rivojlanishi.....	16
Mamajonova N.A. Qurilish korxonalarida innovatsion boshqaruv faoliyati samaradorligini baholash ko‘rsatkichlari arxitekturasi.....	22
Ahmadkulov D.R., Xamrayev O.Y., Khattobov U.B. Kriptovalyutaga soliq solishda jahon tajirabasi va muammolar.....	25
Toshpulatov A.M. Qurilish materiallari sanoati korxonalarining ishlab chiqarish hajmini baholash usullari.....	30
Bahromov Sh.F. Jahonda to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarning (TXXI) iqtisodiy rivojlanish bilan bog‘liqligini tahlili.....	34
Kalmuratov B., Izzetov B., Yusupova J., Shamuratova A. Calculation in econometric models of human capital financing in innovation management in Uzbekistan.....	39
Sultonov B.M. Oilaviy korxonalar faoliyatini boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmiga ta‘sir etuvchi omillar va ularni baholash asoslari.....	43
Юсупов М.Х. Фарғона вилояти маҳаллаларида ижтимоий омилларнинг иқтисодий барқарорликка таъсири: демография, гендер ва миграция таҳлили.....	47
Жаббаров К.Й., Жалолов И.Х., Эркинов М.Д. Молиявий ҳисобот тизимининг моҳияти ва шаклланиш бошқичлари.....	57
Гулямова Н.Х. Саноат корхоналарини инновацион ривожланиши ва миллий иқтисодиёт ўсиши.....	61
Arziboyeva R.S. Banklarda asosiy vositalar va mablag‘lar hisobini takomillashtirish.....	64
To‘raboyev Q.Q. Raqamli iqtisodiyot sharoitida mamlakatimizda soliq tizimini modernizatsiya qilish va sun‘iy intellekt hamda Big Data yordamida nazorat.....	67
Tojiboyev I.I. Raqamli biznes va elektron tijoratni soliqqa tortishning dolzarb masalalari va yechimlari.....	70
Xolmirzayev I.O. Kichik biznes va tadbirkorlik subyektlari faoliyatining rivojlantirishning iqtisodiy yo‘llari.....	74
Saidova M.J. Sanoat tarmoqlari transformatsiyasi sharoitida texnologik eskirish va modernizatsiya muammolari.....	79
Usmonova N.A. Andijon viloyatida kichik korxonalar faoliyat samaradorligiga ta‘sir etuvchi omillarni statistik va ekonometrik tahlil qilish.....	83
Xaydarov M.T., Jannazarova G.K. Bozor infrastrukturasi va uning rivojlanish istiqbollari.....	87
Худайназарова Д.Г. Фармацевтика корхоналарида харажатларга доир ахборотларни бухгалтерия ҳисоботларида очиб бериш тартибини такомиллаштириш.....	93
Madaminov A.M. O‘zbekistonda sanoat tarmoqlari faoliyatida oziq-ovqat sanoati rivojlantirish istiqbollari.....	99
Zufarova G.A. Kambag‘al va ishsiz fuqarolarni tadbirkorlikka jalb qilish masalalari.....	103
Ergashev I.I. Kichik korxonalar investitsiyaviy jozibadorligini samarali boshqarishda jahon amaliyoti tajribasi.....	106
Sativaldiyeva G.X. Ijara munosabatlarini mohiyati, ahamiyati va tasniflanishi.....	110
Kamilova A.N. Sanoat korxonalarida mehnat unumdorligini oshirishda mehnatni normalashtirish tizimining o‘rni va ahamiyati.....	115
Базарова Г.Г. Занятость населения в Узбекистане – теоретико-методологические основы анализа и практические механизмы решения проблем.....	119
Turabov B.T. Byudjet taqchilligi va xalqaro moliyaviy oqimlarning ta‘siri.....	125
Xamzaev A.N. Mamlakatimizda kapital bozorini rivojlantirish yo‘llari.....	131
Xamzaev A.N., Mirzajonov M. Mamlakatimizdagi xususiy korxonalarining raqobatbardoshligini oshirish yo‘llari.....	136

Raximova L.Sh. Innovatsion iqtisodiyot sharoitida ayollar tadbirkorligining roli va uning turmush farovonligiga ta'siri.....	141
Nosirov S.N. ESG tamoyillarini joriy etish orqali sug'urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligini oshirish mexanizmlari.....	146
Maxkamov X.M. Tijorat banklarida muammoli kreditlar ulushini kamaytirishning iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish.....	150
Hamrakulova M.F. Sanoat korxonalarida innovatsion boshqaruv mexanizmlarining mahsulot sifati va bozor raqobatbardoshligiga ta'siri.....	153
Mirzayeva L.S. O'zbekiston qimmatli qog'ozlar bozoridagi aksiyalar likvidligini oshirish yo'llari.....	157
Очилов Ж.Ж. Инновацион ривожланишда кичик бизнес фаолияти экотизимининг роли..	160
Usubjonov Z.V. Qurilish materiallari bozori mohiyati va uning xususiyatlari.....	165
Bekmurodov N.X. Hududiy iqtisodiy rivojlanishning nazariy asoslari va konsepsiyalari.....	170
Yusupova M.B. Zamonaviy boshqaruv tizimi va strategik boshqaruv hisobi.....	175
Xudayberdiyev O.A. Globallashuv sharoitida elektron tijorat orqali tadbirkorlik subyektlarining xalqaro savdo munosabatlarini rivojlantirish mexanizmlari.....	179
Bo'stonova N.A. Andijon viloyatida kichik biznes subyektlarining salohiyatini tahlili.....	187
Bo'stonova N.A., Nematjonova R.D. O'zbekistonda aholining daromadlari va iste'mol xarajatlarining biznes rivojlanishiga ta'siri.....	192
Hamidova Sh.O. Sanoat korxonalarida mehnatni tashkil etish va boshqarish samaradorligi tahlili.	196
Abdullayeva Z.S. Maxsus iqtisodiy zonalar faoliyatining ijtimoiy va institutsional samaradorligi.	199
Duvshatova N.K. Hududlararo iqtisodiy nomutanosiblikni tartibga solishda investitsion yondashuvlarning samaradorligi.....	203
Усманова А.Б. Цифровая составляющая устойчивого развития региональной туристской системы (на примере Бухарской области).....	207
Qidirniyozov A.Sh. Uy-joy qurilishida kapital qo'yilmalar hajmi va yakuniy natijalar o'rtasidagi bog'liqlikni ekonometrik modellashtirish.....	213
Dexkanova Sh.K. Aylanma iqtisodiyotning barqaror rivojlanishdagi ro'li.....	217
Gulimboyev S.I., Rejapov X.X. Aholining farovonligini ta'minlashda ijtimoiy qo'llab-quvvatlashning o'rni.....	221
Mamatov B.S. O'zbekistonning investitsion imkoniyatlari: asosiy tendensiya va natijalar.....	226
Kamoldinova N.A. Ayollar tadbirkorligini rivojlantirish – ular bandligini ta'minlashning asosi.	231
Aminboyev J.O. Amortizatsiya hisobida foydali xizmat muddatini aniqlash: nazariy va amaliy yondashuvlar.....	235
Maxramova N.Y. Strategik menejmentda kadriyatlar zanjiri: raqobatbardoshlikni oshirishning konseptual asoslari.....	241
Usmanova S.S. Innovative development of the pharmaceutical industry.....	245
Faxriddinova N.N. Yashil tadbirkorlik va uning iqtisodiyotdagi o'rni.....	250
Захирова Г. Тиббий туризм хизматлари бозори ривожланишининг хориж тажрибаси.....	254
Абдуллоев А.Ж. Барқарор ривожланиш стратегияси асосида минтақавий саноатлашувни амалга оширишнинг хорижий мамлакатлар амалиёти.....	258
Sharapova N.K. Hududlarni barqaror rivojlantirish dasturlarini xalqaro standartlar tizimiga moslashtirish imkoniyatlari.....	264
Rahmatullayeva D.O. Demografik omillar va bandlik samaradorligi o'rtasidagi munosabatlar..	272

**JAHONDA TO‘G‘RIDAN-TO‘G‘RI XORIJIY INVESTITSİYALARNING (TXXI)
IQTISODIY RIVOJLANISH BILAN BOG‘LIQLIGINI TAHLILI**

**АНАЛИЗ СВЯЗИ ПРЯМЫХ ИНОСТРАННЫХ ИНВЕСТИЦИЙ (ПИИ) С
ЭКОНОМИЧЕСКИМ РАЗВИТИЕМ В МИРЕ**

**ANALYSIS OF THE RELATIONSHIP OF FOREIGN DIRECT INVESTMENT (FDI)
WITH ECONOMIC DEVELOPMENT IN THE WORLD**

Bahromov Shahzod Fazliddinovich

O‘zbekiston Milliy universiteti 3-bosqich talabasi

<https://orcid.org/0009-0002-4402-0663>

Annotatsiya

Maqolada jahonda to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar (TXXI) hajmining iqtisodiy rivojlanish bilan bog‘liqligi tahlil qilinadi. Tadqiqot Jahon banki, Xalqaro Valyuta Jamg‘armasi va UNCTAD ma‘lumotlari asosida olib borildi. Asosiy ko‘rsatkichlar sifatida to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar, energiya narxlari, oltin kursi va global iqtisodiy o‘zgarishlar tahlil qilindi. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar (TXXI) hajmidagi o‘zgarishlar global iqtisodiy o‘sish sur‘atlariga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Ular kapital shakllanishini kuchaytiradi, texnologik yangilanishni tezlashtiradi va makroiqtisodiy barqarorlikni mustahkamlaydi. Maqolada risklarni kamaytirish bo‘yicha moliyaviy diversifikatsiya, xalqaro hamkorlik va innovatsion instrumentlardan foydalanish zarurligi ta’kidlandi.

Kalit so‘zlar: Xalqaro moliya, iqtisodiy risk, investitsiya, moliyaviy barqarorlik, global iqtisodiyot, xavf menejmenti, kapital oqimlari.

В статье анализируется взаимосвязь между объёмом прямых иностранных инвестиций (ПИИ) в мире и экономическим развитием. Исследование проводилось на основе данных Всемирного банка, Международного валютного фонда и ЮНКТАД. Основными анализируемыми показателями были прямые иностранные инвестиции, цены на энергоносители, курс золота и динамика мировой экономики. Результаты показывают, что изменения объёма прямых иностранных инвестиций (ПИИ) оказывают непосредственное влияние на темпы роста мировой экономики. Они способствуют накоплению капитала, ускоряют технологические инновации и укрепляют макроэкономическую стабильность. В статье подчёркивается необходимость финансовой диверсификации, международного сотрудничества и использования инновационных инструментов для снижения рисков.

Ключевые слова: международные финансы, экономический риск, инвестиции, финансовая стабильность, мировая экономика, управление рисками, потоки капитала.

The article analyzes the relationship between the volume of foreign direct investment (FDI) in the world and economic development. The study was conducted on the basis of data from the World Bank, the International Monetary Fund and UNCTAD. The main indicators analyzed were foreign direct investment, energy prices, the gold exchange rate and global economic developments. The results show that changes in the volume of foreign direct investment (FDI) have a direct impact on the rates of global economic growth. They enhance capital formation, accelerate technological innovation and strengthen macroeconomic stability. The article emphasizes the need for financial diversification, international cooperation and the use of innovative instruments to reduce risks.

Keywords: International finance, economic risk, investment, financial stability, global economy, risk management, capital flows.

Global iqtisodiyotning chuqur integratsiyalashuvi xalqaro moliya tizimining ahamiyatini keskin oshirdi. Xalqaro kapital oqimlari, investitsiya faoliyati va moliyaviy barqarorlik bugungi kunda nafaqat alohida davlatlarning, balki butun jahon iqtisodiyotining rivojlanish sur'atlarini belgilab bermoqda. Biroq so'nggi yillarda yuzaga kelgan global iqtisodiy beqarorlik va tashqi omillar moliya bozorlariga sezilarli darajada salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Xususan, valyuta kurslarining o'zgaruvchanligi, investitsion oqimlarning qisqarishi va kapital bozorlaridagi keskin tebranishlar iqtisodiy o'zgarishlarning bevosita oqibatlarini sifatida namoyon bo'lmoqda [1].

O'zbekiston uchun ham ushbu masala alohida dolzarflik kasb etadi. Mamlakatimiz global moliya tizimida faol ishtirok etishga intilmoqda, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish hamda barqaror iqtisodiy siyosatni shakllantirishda iqtisodiy o'zgarishlarni hisobga olish muhim vazifa sifatida maydonga chiqmoqda. Keyingi yillarda iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, moliya bozorini liberallashtirish va xalqaro hamkorlikni kengaytirishga qaratilgan qator islohotlar amalga oshirildi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" hujjatida xalqaro iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish, investitsiyalar oqimini oshirish va moliya bozorini modernizatsiya qilish ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida belgilangan [2].

Shuningdek, 2021-yil 6-apreldagi PQ-5041-son Qaror "Investitsiya siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" xorijiy kapitalni jalb qilish, investorlar uchun qulay sharoitlar yaratish va moliyaviy barqarorlikni mustahkamlashga qaratilgani bilan ahamiyatlidir [3]. Ushbu hujjatlar O'zbekistonning xalqaro moliya tizimida faol ishtirokini ta'minlash va iqtisodiy o'zgarishlarning salbiy oqibatlarini yumshatishga qaratilgan strategik yo'nalishlarni belgilab bermoqda.

Shu sababli, xalqaro moliya va iqtisodiy o'zgarishlarni chuqur o'rganish nafaqat global miqyosda, balki O'zbekiston iqtisodiy siyosati doirasida ham muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega. Ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi – xalqaro moliya tizimiga iqtisodiy o'zgarishlarning ta'sirini tahlil qilish, mavjud muammolar yuzasidan ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish hamda ularni kamaytirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iboratdir.

Xalqaro moliya va iqtisodiy o'zgarishlarning o'zaro ta'siri masalasi so'nggi yillarda ko'plab xalqaro tashkilotlar va olimlarning ilmiy izlanishlarida keng yoritilmoqda. Xalqaro Valyuta Jamg'armasining (IMF) 2023-yilgi Global Financial Stability Report hisobotida iqtisodiy o'zgarishlar global moliya tizimining asosiy zaif jihatlaridan biri sifatida ko'rsatilgan. Unda inflyatsiya bosimining ortishi, kapital oqimlarining qisqarishi va moliyaviy barqarorlikning pasayishi kabi salbiy oqibatlar batafsil tahlil qilingan [5].

Shuningdek, Jahon bankining Global Economic Prospects hisobotida xalqaro iqtisodiy munosabatlarda yuzaga kelayotgan tangliklar investorlar ishonchiga bevosita ta'sir ko'rsatayotgani ta'kidlanadi. Hisobotda iqtisodiy o'zgarishlar investitsiya oqimlarini cheklab qo'yayotgani va bu rivojlanayotgan mamlakatlar uchun moliyaviy resurslarni jalb qilish imkoniyatlarini toraytirayotgani qayd etiladi [6].

Borensztein, De Gregorio va Lee (1998) tadqiqotlarida to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar (TXXI) iqtisodiy o'sishga ijobiy ta'sir ko'rsatishi isbotlangan. Shuningdek, Alfaro va hamkorlari (2004) TXXI samaradorligi moliya tizimi rivojlangan mamlakatlarda kuchliroq ekanini ta'kidlashadi.

O'zbekistonlik olim I. Karimova o'z tadqiqotida global moliya tizimida erkin raqobat muhitini shakllantirish va xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda iqtisodiy o'zgarishlarni hisobga olish zarurligini ta'kidlagan [7]. Bundan tashqari, mintaqaviy darajadagi ayrim izlanishlarda ham O'zbekistonning investitsion jozibadorligi iqtisodiy barqarorlik bilan bevosita bog'liqligi qayd etiladi.

Umuman olganda, adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, iqtisodiy o'zgarishlar xalqaro moliya tizimida asosiy beqarorlik omillaridan biridir. Biroq mavjud izlanishlarda ko'proq global tendensiyalar yoritilgan bo'lib, alohida mamlakatlar, xususan, O'zbekiston misolida chuqur tahlillar yetarlicha emas. Shu bois, ushbu tadqiqot iqtisodiy o'zgarishlarning xalqaro moliya tizimiga ta'sirini nafaqat global, balki milliy kontekstdagi xususiyatlarini ham ochib berishga qaratilgan.

Tadqiqot metodologiyasi

Mazkur izlanishlar xalqaro moliya tizimiga iqtisodiy o‘zgarishlarning ta‘sirini o‘rganishda tahlil va taqqoslash metodlari asosida olib borildi. TXXI hajmining iqtisodiy jarayonlarga ta‘siri statistik ma‘lumotlarni solishtirish hamda qiyosiy tahlil orqali baholandi. Tadqiqot davomida induksiya va deduksiya, abstraksiya, shuningdek shartli modellashtirish va tavsiflash metodlaridan foydalanildi.

Tahlil va natija

Jahon iqtisodiy tizimining rivojlanish sur‘atlari va investitsiya oqimlari o‘zaro chambarchas bog‘liqdir. Mamlakatlar iqtisodiyotining barqaror o‘shishini ta‘minlashda to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar (TXXI) hal qiluvchi omil sifatida qaraladi. So‘nggi yillarda global iqtisodiy beqarorlik, ta‘minot zanjirlaridagi o‘zgarishlar va moliyaviy siyosatdagi noaniqliklar TXXI hajmiga ma‘lum darajada ta‘sir ko‘rsatgan.

UNCTAD va Xalqaro Valyuta Jamg‘armasi (IMF) ma‘lumotlariga ko‘ra, 2019–2023 yillarda jahon bo‘yicha TXXI hajmi 1,0 trillion AQSh dollaridan 1,7 trilliongacha o‘zgarib turgan. Quyidagi jadvalda 2019–2023 yillarda jahon miqosidagi TXXI hajmi va yalpi ichki mahsulot (YaIM) o‘shish sur‘atlari keltirilgan. Ushbu ma‘lumotlar TXXI oqimlari bilan iqtisodiy o‘shish o‘rtasidagi bog‘liqlikni ochib beradi [1-jadval].

1-jadval

Jahon bo‘yicha to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar (TXXI) hajmi va iqtisodiy o‘shish sur‘atlari (2019–2023 yillar)

Yil	To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar (trln. \$)	Neft narxi (Brent, \$/barrel)	Oltin narxi (1 untsiya, \$)	Global inflyatsiya (%)
2020	1,5	41	1770	3,2
2021	1,9	70	1798	4,7
2022	1,6	100	1825	8,7
2023	1,7	82	1900	6,9
2024	1,8	75	1945	5,6

Manba: Jahon banki, IMF statistik hisobotlari asosida muallif tomonidan tuzildi [8,9].

Jadval ma‘lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, jahon bo‘yicha TXXI hajmi va iqtisodiy o‘shish sur‘atlari o‘rtasida aniq ijobiy bog‘liqlik mavjud. 2020-yilda global iqtisodiy beqarorlik tufayli investitsiya oqimlari 1,0 trillion dollargacha kamaygan bo‘lsa, 2021-yilda tiklanish davrida sarmoyalar hajmi keskin oshib, 1,58 trillion dollarga yetgan. Shu bilan birga, jahon YaIM o‘shish sur‘atlari ham 6,3 foizni tashkil etgan.

Bu holat TXXI oqimlari iqtisodiy o‘shishning muhim drayveri ekanini ko‘rsatadi. Chet el investitsiyalari kapital shakllanishini kuchaytiradi, yangi texnologiyalarni olib kiradi va ishlab chiqarish samaradorligini oshiradi. 2022–2023 yillarda investitsiyalar nisbatan pasaygan bo‘lsa-da, bu davrda ham ular iqtisodiy barqarorlikni saqlashda muhim rol o‘ynagan.


Umuman olganda, TXXI oqimlari o‘shish sur‘atlari bilan muvofiq harakat qilgan:

- TXXI hajmining oshishi bilan YaIM ham o‘shish tendensiyasini ko‘rsatgan;
- Investitsiyalarning kamayishi esa o‘shish sur‘atlarining pasayishiga olib kelgan.

Demak, iqtisodiy rivojlanish barqarorligini ta‘minlashda TXXI oqimlarini ko‘paytirish, investitsion muhitni yaxshilash va sarmoyalarni strategik sohalarga yo‘naltirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli, mamlakatlar sarmoyadorlar uchun qulay shart-sharoit yaratish, soliqqa oid rag‘batlar berish hamda moliyaviy infratuzilmani takomillashtirish orqali iqtisodiy o‘shish sur‘atlarini barqaror ushlab turishi zarur.

So‘nggi yillarda to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar (TXXI) jahon iqtisodiy o‘shish sur‘atlarining muhim drayverlaridan biriga aylandi. TXXI hajmining yillik o‘zgarishlari ko‘plab mamlakatlarda ishlab chiqarish faolligi, kapital shakllanishi va yalpi ichki mahsulot (YaIM) o‘shishiga bevosita ta‘sir ko‘rsatmoqda. Shu sababli, 2019–2023 yillar oralig‘ida TXXI hajmi va jahon YaIM

o‘shish sur‘atlari o‘rtasidagi o‘zgarish dinamikasini tahlil qilish global iqtisodiy faollik tendensiyalarini baholashda muhim ahamiyat kasb etadi [1-rasm].



1-rasm. 2019–2023 yillarda TXXI hajmi va jahon YaIM o‘shish sur‘atlari

Manba: UNCTAD, *World Investment Report* (2024); IMF, *World Economic Outlook* (2024) [10].

Diagrammadan ko‘rinib turibdiki, 2019–2020 yillarda global iqtisodiyotda pasayish kuzatilgan bo‘lib, bu jarayon to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar (TXXI) hajmida ham o‘z aksini topgan. 2020-yilda TXXI hajmi 1,5 trillion AQSh dollargacha qisqargan, bu esa jahon yalpi ichki mahsulotining 3,1 foizga kamayishi bilan mos kelgan.

2021-yilda iqtisodiy tiklanish davrida investitsiya oqimlari keskin oshib, TXXI hajmi 1,9 trillion AQSh dollarga yetgan, jahon YaIM esa 6,3 foiz o‘shishni qayd etgan. 2022–2023 yillarda global iqtisodiy faollikning sekinlashuvi natijasida TXXI hajmi biroz pasaygan bo‘lsa-da, 1,7 trillion AQSh dollari atrofida barqaror saqlanib qolgan. Ushbu holat TXXI va iqtisodiy o‘shish o‘rtasidagi yaqqol ijobiy korrelyatsiyani tasdiqlaydi.

Bu holat TXXI va iqtisodiy o‘shish o‘rtasidagi yaqqol ijobiy korrelyatsiyani tasdiqlaydi. Ya‘ni, iqtisodiy faollik kuchaygan yillarda TXXI hajmi ham oshgan, iqtisodiy o‘shish pasaygan davrlarda esa sarmoya oqimlari qisqargan. Shu asosda aytish mumkinki, TXXI global iqtisodiy barqarorlikni ta‘minlashda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi (2-jadval).

2-jadval

Mintaqalar bo‘yicha to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar (TXXI) oqimlari (2018–2023 yillar, million AQSh dollari)

Mintaqa / Yil	2018	2019	2020	2021	2022	2023
Sharqiy va Janubi-Sharqiy Osiyo	387960	486971	329681	612909	566937	555782
Yevropa	517450	580332	240648	459234	414930	393794
Shimoliy Amerika	305817	251934	209285	315289	376833	335689
Lotin Amerika va Karib dengizi	159284	174532	98711	207889	209690	169782
Afrika	47787	57236	40987	93123	92860	71949
Yaqin Sharq va Markaziy Osiyo	47956	54414	41688	93381	91058	67856
Jahon jami	1466576	1605419	960000	1781825	1752308	1595852

Manba: UNCTAD, Annex Table 1, *World Investment Report* 2024

Jadval ma‘lumotlariga ko‘ra, 2020-yilda global iqtisodiy beqarorlik ta‘sirida barcha mintaqalarda to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar (TXXI) hajmi qisqargan. 2021-yilda iqtisodiy

tiklanish jarayonlari natijasida investitsiyalar sezilarli ortgan, ayniqsa Osiyo va Lotin Amerikasi mamlakatlari yuqori o‘shirish sur‘atlarini namoyish etgan.

2022–2023 yillarda esa ayrim mintaqalarda iqtisodiy o‘shirish sur‘atlarining sekinlashuvi va tashqi omillar ta‘sirida TXXI hajmi nisbatan kamaygan. Shunga qaramay, Sharqiy va Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlari jahon bo‘yicha eng yirik investitsiya oqimlarini jalb etishda yetakchilik mavqeyini saqlab qolmoqda.

Bu holat shuni ko‘rsatadiki, mintaqalarda TXXI oqimlarining hajmi iqtisodiy siyosatning barqarorligi, ishlab chiqarish infratuzilmasi va investitsion muhit sifatiga bevosita bog‘liqdir.

Xalqaro investitsiya oqimlari, ayniqsa to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar (TXXI), jahon iqtisodiyoti barqarorligining muhim omillaridan biri hisoblanadi. So‘nggi yillardagi tahlillar shuni ko‘rsatadiki, TXXI hajmi va iqtisodiy o‘shirish o‘rtasida yaqqol ijobiy bog‘liqlik mavjud. Sarmoya oqimlari mamlakatlarning ishlab chiqarish salohiyatini kengaytiradi, yangi texnologiyalarni olib kiradi hamda eksport imkoniyatlarini oshiradi.

O‘zbekiston tajribasi ham bu yo‘nalishda muhim ahamiyat kasb etadi. So‘nggi yillarda mamlakatda xorijiy investitsiyalarni jalb etish, investorlar uchun qulay muhit yaratish va iqtisodiy liberallashtirish siyosatini kengaytirish bo‘yicha qator islohotlar amalga oshirildi. Buning natijasida iqtisodiyotning ayrim tarmoqlarida, xususan sanoat, xizmat ko‘rsatish va infratuzilma sohalarida TXXI oqimlari sezilarli darajada oshgan.

Ushbu tadqiqot asosida quyidagi ilmiy asoslangan takliflar ilgari suriladi:

1. Investitsion muhitni yanada yaxshilash. Huquqiy kafolatlar, soliq imtiyozlari va investorlar uchun prognoz qilinadigan siyosiy barqarorlik muhitini yaratish zarur.

2. Kapital oqimlarini diversifikatsiya qilish. TXXI sarmoyalarni turli tarmoqlar va mintaqalar bo‘yicha taqsimlash orqali iqtisodiy xavflarni kamaytirish lozim.

3. Texnologik transfer va innovatsiyalarni rag‘batlantirish. Xorijiy sarmoyalarni orqali ilg‘or texnologiyalarni joriy etish va mahalliy kadrlar salohiyatini oshirish muhim.

4. Raqamli va yashil iqtisodiyot sohalarida sarmoyalarni kengaytirish. Bu yo‘nalishlar barqaror rivojlanishning asosiy drayverlaridan biridir.

5. Institutsional islohotlarni chuqurlashtirish. Shaffoflikni kuchaytirish, korrupsiya xavflarini kamaytirish va davlat hamda xususiy sektor o‘rtasidagi hamkorlikni mustahkamlash zarur.

Umuman olganda, TXXI oqimlari iqtisodiy o‘shirishning muhim harakatlantiruvchi kuchi bo‘lib, ularni samarali jalb qilish mamlakatlar raqobatbardoshligini oshiradi. O‘zbekiston uchun bu masala strategik ahamiyat kasb etadi. Taklif etilgan chora-tadbirlarni bosqichma-bosqich amalga oshirish orqali iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash, yangi ish o‘rinlarini yaratish va milliy ishlab chiqarish salohiyatini kengaytirish imkoniyati yuzaga keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. International Monetary Fund (2023). *Global Financial Stability Report*. Washington, D.C.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF–60-sonli Farmoni.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 6-apreldagi PQ–5041-son Qarori “Investitsiya siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”.
4. Karimova, I. (2024). “Milliy iqtisodiyotda erkin raqobat muhitini shakllantirish: mavjud muammo va istiqbolli imkoniyatlar”. *O‘zbekiston iqtisodiy tadqiqotlari jurnali*, №2.
5. World Bank (2024). *World Development Indicators*. Washington, D.C.: The World Bank. Available at:
6. International Monetary Fund (2024). *World Economic Outlook: Navigating Global Divergences*. Washington, D.C.: IMF. Available at:
7. UNCTAD (2023). *World Investment Report 2023*. New York: United Nations.
8. Borensztein, E., De Gregorio, J., & Lee, J. (1998). *How Does Foreign Direct Investment Affect Growth?* *Journal of International Economics*, 45(1), 115–135.
9. Alfaro, L., Chanda, A., Kalemli-Ozcan, S., & Sayek, S. (2004). *FDI and Economic Growth: The Role of Local Financial Markets*. *Journal of International Economics*, 64(1), 89–112.